

Xalq so‘zi

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 3-sentyabr, № 183 (9354) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISLOM KARIMOV XOTIRASIGA EHTIROM KO‘RSATILDI

2-sentyabr kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovni xotirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.





Prezident Shavkat Mirziyoyev Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurib, Birinchi Prezidentimiz haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.

Islom Karimov mamlakatimiz tarixining g‘oyat murakkab va mas’uliyatli davrida O‘zbekistonga rahbarlik qildi. Uning nomi mustaqillikning qo‘lga kiritilishi, milliy davlatchiligimizning tiklanishi va yurtimizning mustaqil taraqqiyot yo‘liga chiqishi bilan uzviy bog‘liq.

Mustaqillik, eng avvalo, bizga shon-u sharafimiz, muqaddas dinimiz, ona tilimiz, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi.

Istiqlol tufayli biz o‘zligimizni angladik, nomi hamisha e’zozda bo‘lgan ota-bobolarimizning munosib vorislari ekanimizni butun dunyoga namoyon etdik.

Shu ma’noda, mustaqilligimizning poydevorini yaratishga, mamlakatimiz tinchligi va barqarorligini ta’minlashga, xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qilishga katta hissa qo‘shgan insonlar xotirasini e’zozlash muhim ma’naviy qadriyatdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning e’tibori bilan Birinchi Prezidentimizning xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Toshkentda Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasi tashkil etildi.

Samarqandga tashriflar chog‘ida uning maqbarasini ziyorat qilish ezgu an’anaga aylandi.

Marosimda Qur’on tilovat qilinib, duo o‘qildi. Islom Karimovning mamlakatimiz mustaqilligi, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, xalq farovonligini yuksaltirish yo‘lidagi xizmatlari yodga olindi.

Oliy Majlis palatalari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar vakillari, ziyolilar va Toshkent shahri jamoatchiligi ham Birinchi Prezidentimiz haykali poyiga gullar qo‘ydi.

Xotira tadbirlari Samarqand va Qarshi shaharlarida ham bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

MILLIY STATISTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish yakunlari hamda milliy statistika tizimida islohotlarni jadallashtirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimiz aholisi 1989-yildan buyon qariyb ikki barobar, iqtisodiyotimiz esa so‘nggi sakkiz yilda ikki karra o‘sdi. Bunday o‘zgarishlar aholi tarkibi, yashash manzillari, yer resurslari, qishloq xo‘jaligi hamda oziq-ovqat manbalari to‘g‘risida aniq va ishonchli ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi.

Shu maqsadda joriy yilda o‘tkazilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari bo‘yicha axborot berildi.

Dastlabki natijalarga ko‘ra, yurtimizda doimiy aholi soni 39 million 47 ming nafarni tashkil etdi. Amaldagi hisobda aks etmagan 810,6 ming nafar aholining yashash manzili va ijtimoiy maqomiga aniqlik kiritildi.

Amaldagi ma’lumotlar bilan solishtirganda Jizzax viloyati aholisi 2,7 foiz, Namanganda 1,3 foiz, Surxondaryoda 0,9 foiz va Qashqadaryoda 0,7 foiz kam ekani aniqlandi. Buxoro viloyatida ko‘rsatkich deyarli o‘zgarmagan, boshqa hududlarda esa o‘sgan. Xususan, Toshkent tumani aholisi avvalgi hisobga nisbatan 1,6 barobar ko‘p, Andijon shahrida esa 15,8 foiz kam ekani ma’lum bo‘ldi.

Qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijasida hisobda aks etmagan 985,5 ming gektar yerning chegarasi va toifasi aniqlashtirildi. Shundan 789,5 ming gektari ekin yerlari, 14,1 ming gektari issiqxonalar, 75,3 ming gektari bog‘lar, 21,4 ming gektari tokzorlar va 85 ming gektari baliqchilik havzalariga to‘g‘ri keladi.

Jarayonlarning raqamlashtirilgani hisobiga ro‘yxatga olish xarajati aholi jon boshiga 1,5 ming so‘mdan oshmadi. Bu MDH davlatlaridagi ko‘rsatkichlarga nisbatan 15 barobar kam. Internet orqali ro‘yxatga olish qamrovi 82,3 foizni tashkil etdi. Barcha jarayonlar 15 kunda yakunlanib, O‘zbekiston ro‘yxatga olish tezligi bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni egalladi.

Ro‘yxatga olish natijalari asosida aholi va qishloq xo‘jaligining doimiy yangilanib boradigan statistik registrlari shakllantiriladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlariga oid 100 ta, qishloq xo‘jaligi va ekin maydonlariga doir 50 ta ko‘rsatkich yangilanadi. Shuningdek, 2017 – 2025-yillar uchun milliy hisoblar ko‘rsatkichlari qayta baholanadi.

Taqdimotda iqtisodiy faoliyatni to‘liq statistik hisobga olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Bugungi kunda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 23 foizni yoki 246 trillion so‘mni tashkil etmoqda. Qishloq xo‘jaligida umumiy aylanmaning 60 foizi ushbu sektor hissasiga to‘g‘ri keladi.

➡2

ATOM ELEKTR STANSIYASI QURILISHI VA ATOMCHILAR SHAHARCHASI LOYIHASI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatida integratsiyalashgan atom elektr stansiyasi hamda unga yondosh zamonaviy shaharcha barpo etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti bilan tanishdi.

Atom energetikasini rivojlantirish mamlakatimiz energetik xavfsizligini mustahkamlash, barqaror bazaviy elektr generatsiyasini yaratish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega.

Integratsiyalashgan atom elektr stansiyasi loyihasi joriy yil 4-iyundan qurilishning faol bosqichiga o‘tdi. Bugungi kunga qadar reaktor binosi uchun kotlovan qazish ishlari to‘liq yakunlanib, 1 million kub metrdan ortiq tuproq qazib olindi. Poydevor plitasining bir qismiga 916 kub metr beton quyildi. Qurilish-montaj bazasidagi 100 gektar maydonda yer ishlari bajarildi.

Ayni paytda qurilish maydonida 450 nafar ishchi va mutaxassis, 100 dan ziyod maxsus texnikalar faoliyat yuritmoqda.

Loyihaning umumiy qiymati 9,5 milliard dollarni tashkil etadi. Jarayonda 3 mingga yaqin turdagi mahsulot va uskunalardan foydalaniladi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, loyihada mahalliy mahsulotlar ulushi 21 foiz yoki 1,9 milliard dollarni tashkil etadi. Davlatimiz rahbari bu ko‘rsatkich yetarli emasligini ta’kidladi.

Loyihada mahalliy mahsulotlar ulushini kamida 30 foizga yetkazish, qurilish-montaj ishlarining 65 foizini milliy korxonalar tomonidan bajarish hamda 7 ming nafar mahalliy ishchi va mutaxassisni jalb etish vazifasi qo‘yildi.

Shu maqsadda Forish tumanida 200 gektar maydonda qurilish materiallariga ixtisoslashtirilgan sanoat zonasini tashkil etish taklif qilindi. Unda kamida 100 ta qo‘shma korxonani joylashtirish va texnologiyalar transferi orqali 15 ta yo‘nalishda mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz ushbu taklifni ma’qullab, sanoat zonasi ishtirokchilariga soliq va bojxona imtiyozlarini tatbiq etish bo‘yicha qaror loyihasini yil yakuniga qadar kiritishni topshirdi.

Bunda qurilish sifati va xavfsizligi eng ustuvor masala bo‘lishi shartligi, barcha ishlar MAGATE talablari va xalqaro standartlarga to‘liq muvofiq amalga oshirilishi ta’kidlandi.

Taqdimotda joriy yil 22 – 26-iyun kunlari MAGATEning kompleks baholash missiyasi o‘tkazilib, O‘zbekiston milliy yadroviy infratuzilmasining rivojlanish holatiga yuqori baho berilgani qayd etildi.

➡2

Munosabat

AES – YUQORI TEXNOLOGIK QUVVAT MANBAI

U energiyaga talab muttasil oshib borayotgan O‘zbekiston uchun juda zarur

Xorijiy ekspertlarning e’tirofiga ko‘ra, O‘zbekiston hozirgi kunda dunyodagi eng jadal rivojlanayotgan mamlakatlar sirasiga kiradi. Bu, albatta, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat va yangidan-yangi tashabbuslar mevasidir. O‘tgan yili yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 7,7 foizni tashkil etib, mamlakatimiz mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha dunyoning birinchi o‘ntaligiga kirdi. Joriy yildagi ko‘rsatkichlar yanada zalvarli bo‘ladi. Chunki yirik investitsiyaviy loyihalarga qo‘l urilmoqda, sanoat korxonalari ko‘paymoqda, xizmat ko‘rsatish tizimida o‘zgarishlar karrasiga oshayotir. Bu esa energetik resurslarga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda.

Prezidentimiz Jizzax viloyatida integratsiyalashgan atom elektr stansiyasi hamda unga yondosh zamonaviy shaharcha barpo etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti bilan tanishar ekan, bunyodkorlik jarayonidagi har bir holatga jiddiy e’tibor qaratdi.

Mazkur ulkan loyiha qurilishi shu yilning 4-iyunidan boshlab yanada faollashdi. Keyingi ikki oy ichida atom reaktor binosi uchun kotlovan qazish ishlari to‘liq yakunlanib, 1 million kub metrdan ortiq tuproq qazib olindi. Beton quyish, 100 gektar maydonda yer ishlarini bajarishga 450 nafardan ziyod ishchi-yu mutaxassislar, 100 dan ortiq maxsus texnika vositalari yo‘naltirilgan. Kelgusida bunyodkorlik ishlariga yana 6,5 mingdan ortiq kishilar, shunga yarasha zamonaviy texnikalar, eng so‘nggi asbob-uskunalar jalb etiladi. Mahalliylashtirish ulushini keskin oshirish maqsadida Forish tumanida 200 gektar maydonda qurilish materiallariga ixtisoslashtirilgan sanoat zonasi paydo bo‘ladi. Qisqa aytganda, Forish tumanidagi AES qurilayotgan maydon eng qaynoq va dunyo nazariga tushgan joyga aylanmoqda.

Eng muhimi, ushbu loyihaning nafaqat energetika tizimi, balki butun iqtisodiyotimiz uchun beqiyos imkoniyatlar yaratishini soha mas’ullari, olimlar, mutaxassislar, oddiy aholi vakillari alohida ta’kidlamoqda.

➡4

Ulkan orzular ostonasida

2-sentyabr... Yangi o‘quv yilining ilk kuni – har bir xonadon, har bir maktab va butun jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega unutilmas palla. Bu kunda ta’lim dargohlariga ilk qadam qo‘yayotgan jajji farzandlarning hayajoni, ustozlarning ezgu niyati, ota-onalarning kelajakka bo‘lgan katta ishonchi mujassam.

Birinchi qo‘ng‘iroq



Kecha ham mamlakatimizning barcha shaharlariyu so‘lim qishloqlarida joylashgan umumta’lim maktablarida yangi 2026/2027 o‘quv yili boshlangani e’lon qilinib, qo‘ng‘iroqlar jarangladi.

Erta tongdan yurtimizdagi maktab hovlilari bayramona bezatilib, bolajonlarning shodon kulgilari va jarangdor ovozlari bilan to‘lib- toshdi. Maktablardagi yangi o‘quv yili nafaqat bilim olish, balki Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarni e’zozlash va yuksak marralarni ko‘zlash ruhida start oldi.

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!” shiori ostidagi “Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlari mamlakatimizning barcha umumta’lim muassasalarida yuqori saviya va ko‘tarinki shukuhda bo‘lib o‘tdi. Ona Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi tantanalariga hamohang ravishda o‘tkazilgan bayram shodiyonalarida maktab direktorlari, tajribali va jonkuyar o‘qituvchilar, ota-onalar hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

➡3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 3-sentyabr

MILLIY STATISTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

1 Mehnat bilan band bo‘lgan 15,2 million aholining 6,5 millioni yoki 42 foizining daromadlari rasmiy hisobda to‘liq aks etmayapti. Ro‘yxatdan o‘tgan ko‘plab kichik va o‘rta biznes subyektlari amalda ishlamaydi yoki faoliyatini to‘xtatgan.

Mazkur holat halol ishlayotgan va soliq majburiyatlarini to‘liq bajarayotgan korxonalar uchun nosog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda. Har 4-5 so‘mlik iqtisodiy aylanmaning 1 so‘mi rasmiy statistika e’tiboridan chetda qolmoqda. Ushbu faoliyatni tartibga solish byudjetga qo‘shimcha o‘nlab trillion so‘m tushumni ta’minlash va kelgusida soliq yukini kamaytirish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan joriy yilning 15-oktyabridan 30-noyabriga qadar biznesni ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish taklifi ma’qullandi. Uning doirasida mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha iqtisodiy birliklar xatlovdan o‘tkazilib, subyektlarning holati, tarkibi va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimotiga aniqlik kiritiladi. Korxona va tashkilotlar to‘g‘risidagi statistik registrlar yangilanib, tanlanma kuzatuvlar uchun ishonchli asos yaratiladi.

Milliy statistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha rejalar ham ko‘rib chiqildi. Tadbirkorlar taqdim etadigan hisobot yukini 20 foizga qisqartirish, ma’muriy va muqobil ma’lumotlar manbalari sonini 1,7 barobar oshirish, ularga ishlov berish vaqtini 20 foizga va xarajatlarni 25 foizga kamaytirish maqsad qilingan.

Ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha yagona yondashuvni shakllantirish maqsadida vazirlik va idoralar ishtirokida Ma’lumotlarni boshqarish komissiyasini tashkil etish taklif qilindi.

Komissiya joriy yil 1-dekabrga qadar davlat organlari va tashkilotlaridagi ma’lumotlarni boshqarish tizimlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazadi, 2027-yil 1-maygacha ularni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlaydi.

2027-yil 1-iyulga qadar Milliy ma’lumotlar platformasini ishga tushirish rejalashtirilgan. Platforma ma’lumotlarni yagona tizimga integratsiya qilish, ularning sifati va xavfsizligini ta’minlash, tahlil va zamonaviy raqamli xizmatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Ochiq ma’lumotlar bilan ishlash bo‘yicha loyiha ofisini tashkil etish va davlat idoralari uchun “Ochiq ma’lumotlar reytingi”ni joriy qilish taklif etildi.

Statistika sohasida kadrlar tayyorlash va tadqiqotlarni kengaytirish maqsadida Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv maktabini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Unda davlat idoralari, biznes, statistika organlari, ommaviy axborot vositalari, tadqiqotchilar va talabalar uchun ma’lumotlarni boshqarish, biznes-tahlil, sun’iy intellekt, ma’lumotlar jurnalistikasi va vizualizatsiya bo‘yicha o‘quv dasturlari yo‘lga qo‘yiladi.

Milliy statistika tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham kengaytiriladi. 2027-yil 1-iyulga qadar statistik ma’lumotlar sun’iy intellekt tizimlari o‘qiy oladigan formatlarda e’lon qilinadi. Statistik ko‘rsatkichlarni taqqoslash va chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi sun’iy intellekt agentlari joriy etiladi. 2027-yil yakuniga qadar aholi, demografiya, qishloq xo‘jaligi, infratuzilma va hududiy rivojlanishga oid ma’lumotlar geofazoviy raqamli xaritalarda aks ettiriladi.

Shuningdek, 2027-2028-yillarda Multiindikator klaster kuzatuvining yettinchi raundini o‘tkazish hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasi ishtirokida milliy statistika tizimining xalqaro standart va kodekslarga muvofiqligini baholash rejalashtirilgan.

Taqdimotda “Statistikani rivojlantirish – 2030” milliy strategiyasi loyihasi ham ko‘rib chiqildi. Unda statistika tizimini muvofiqlashtirish va ma’lumotlar sifatini ta’minlash, xalqaro standart va metodologiyalarni joriy etish, raqamli transformatsiya, ma’muriy va muqobil ma’lumotlardan keng foydalanish hamda foydalanuvchiga yo‘naltirilgan ochiq statistikani rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar etib belgilangan.

Davlatimiz rahbari aniq, tezkor va ishonchli statistika davlat siyosatini belgilash, hudud va tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha to‘g‘ri qarorlar qabul qilishning muhim sharti ekanini ta’kidladi.

Mutasaddilarga ro‘yxatga olish natijalarini chuqur tahlil qilib, davlat dasturlarida keng qo‘llash, biznesni ro‘yxatga olish tadbirini sifatli uyushtirish, ma’lumotlarni boshqarishning yagona tizimini joriy qilish hamda milliy statistika tizimini xalqaro standartlar asosida izchil rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

ATOM ELEKTR STANSIYASI QURILISHI VA ATOMCHILAR SHAHARCHASI LOYIHASI KO‘RIB CHIQILDI

1 Stansiyaning tashqi muhandislik infratuzilmasini barpo etish doirasida 388 kilometr elektr tarmoqlari, 110 kilovoltli podstansiya, 21 kilometr ichimlik va 120 kilometr texnik suv quvurlari, 39,5 kilometr avtomobil hamda 11 kilometr temir yo‘l quriladi.

Davlatimiz rahbari ushbu obyektlar qurilishida mahalliy mahsulot va xizmatlar ulushini 60 – 70 foiz darajasida ta’minlash zarurligini ko‘rsatib o‘tdi.

Qurilish davrida ishchi va mutaxassislar hamda ularning oilalarini munosib yashash sharoiti bilan ta’minlash maqsadida atomchilar shaharchasini barpo etish rejasi ham ko‘rib chiqildi.

Ikki yuz gektar maydonda qariyb 33 ming aholiga mo‘ljallangan 10 mingga yaqin, shu jumladan, birinchi bosqichda 3 mingta xonadonli turarjoylar qurilishi ko‘zda tutilgan.

Shaharchada energosamarador ko‘p qavatli uylar, maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari, tibbiyot, sport va madaniyat obyektlari, dam olish maskanlari hamda keng yashil hududlar bo‘ladi. Qurilishda zamonaviy issiqlik himoyasi, muqobil energiya va “aqlli” yoritish yechimlaridan foydalaniladi.

Loyihani boshqarish va texnik nazoratni kuchaytirish, texnologik yechimlarni mustaqil ekspertizadan o‘tkazish uchun yetakchi xorijiy injiniring kompaniyalari ishtirokida qo‘shma korxona tashkil etish taklifi bildirildi. Shuningdek, qariyb mingta sohaviy standartni milliy tizimga moslashtirish va amaliyotga joriy etish belgilandi.

Stansiyani kelgusida boshqaradigan yuqori malakali operatorlar, muhandislar va radiatsiya xavfsizligi mutaxassislarini hozirdan maqsadli tayyorlash zarurligi ta’kidlandi.

Rossiya milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filialini 2023-yildan buyon 216 nafar talaba bitirgan. Ularning 83 nafari Xitoy, Vengriya, Fransiya, Italiya va Janubiy Koreyaning yetakchi oliygohlarida magistratura va aspiranturada tahsilni davom ettirmoqda. Yana 100 nafar mutaxassis mamlakatimizning to‘rtta oliy ta’lim muassasasida tayyorlanmoqda.

“O‘zatom” agentligi va AES qurilishi direksiyasining vazifalari kengayib borayotganidan kelib chiqib, ularning tashkiliy va kadrlar salohiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlash takliflari ham ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari atom stansiyasi va atomchilar shaharchasi qurilishini yuqori sifatda, xavfsiz va belgilangan muddatlarda amalga oshirish, mahalliy korxonalar ishtirokini kengaytirish, infratuzilma hamda kadrlar tayyorlash ishlarini uyg‘un tashkil etish bo‘yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

O‘zA.

Aks sado

INSON MANFAATLARIGA XIZMAT QILUVCHI TASHABBUSLAR

Bugun dunyoda geosiyosiy raqobat kuchayib, iqtisodiy aloqalarning yangi shakllari vujudga kelayotgan, xavfsizlik va barqarorlik masalalari tobora dolzarb tus olayotgan sharoitda bir haqiqat aniq ko‘rinmoqda: zamonaviy muammolarni yolg‘iz hal etish qiyin. Bunday sharoitda davlatlar uchun o‘zaro ishonch, ochiq muloqot va amaliy hamkorlik muhim ehtiyojga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining yubiley yig‘ilishi hamda “ShHT plyus” formatidagi uchrashuvda ilgari surgan tashabbuslari alohida ahamiyat kasb etadi.

ShHTning 25 yillik faoliyati sarhisob qilingan Bishkek sammitida tashkilotning kelgusi vazifalari muhokama etilib, muhim hujjatlar, jumladan, Bishkek deklaratsiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston Prezidenti esa tashkilotning salohiyatini yanada oshirish, uning iqtisodiy, xavfsizlik va gumanitar yo‘nalishlardagi hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Prezidentimizning “ShHT plyus” formatiga yondashuvi, avvalo, uning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Bu formatni oddiy kengaytirilgan yig‘ilish emas, balki davlatlar, mintaqalar va xalqaro tashkilotlarni umumiy maqsadlar atrofida birlashtiradigan doimiy muloqot maydoniga aylantirish taklifi bugungi voqelikka to‘la mos keladi.

Ayniqsa, BMTning markaziy va muvofiqlashtiruvchi rolini saqlab qolish, mintaqaviy tuzilmalar esa umumiy qarorlarni muayyan hududlarning sharoiti va ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirishga ko‘maklashishi kerakligi haqidagi yondashuv prinsipial ahamiyatga ega. Zero, Markaziy Osiyoning tinchligi va barqarorligi nafaqat mintaqa, balki butun Yevroosiyo makonidagi jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Bugun tadbirkorga katta minbarlardagi chiroyli bayonotlardan ko‘ra, bozorlarga kirishning osonlashishi, transport xarajatlarining kamayishi, tovarlarning chegaradan tez o‘tishi va investitsiya uchun qulay sharoit kerak. Prezidentimiz aynan shu masalalarga urg‘u berib, bozorlarga kirish tartib-taomillarini soddalashtirish, transchegaraviy transport yo‘laklarini rivojlantirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini ko‘paytirish zarurligini ta’kidladi.



Ayonki, “zamonaviy xavfsizlik” tushunchasi faqat harbiy tahdidlar bilan cheklanmaydi. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik, narkotrafik, kiberxavflar va ekologik muammolar davlatlardan birgalikda harakat qilishni talab etmoqda. Markaziy Osiyo xavfsizligida Afg‘oniston masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Afg‘onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb etish, tinchlik va barqarorlikka ko‘maklashish nafaqat xavfsizlikni ta’minlaydi, balki transport, savdo va energetika sohalarida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Shuning uchun ushbu hududga faqat xavf manbasi sifatida emas, balki mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning kelajak ishtirokchisi o‘laroq qarash muhim.

O‘zbekiston tashabbuslarida madaniy-gumanitar hamkorlik ham muhim o‘rin tutadi. “ShHT plyus” madaniyatlar va sivilizatsiyalar doimiy forumini tashkil etish, uning dastlabki tadbirini qadimiy ilm-fan va ma’rifat markazi bo‘lgan Xiva shahrida o‘tkazish taklifi xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, davlatlarni faqat iqtisodiy manfaatlar emas, balki umumiy tarix, madaniyat, ilm-fan va ma’naviy qadriyatlar ham yaqinlashtiradi.

Shuningdek, turli mintaqalarda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan texnologiya va yechimlarni o‘zaro almashishga xizmat qiladigan Ochiq bankni shakllantirish tashabbusi ham diqqatga sazovor. “Yashil” energetika, raqamli xizmatlar, tabiatdan oqilona foydalanish va sog‘liqni saqlash sohalaridagi ilg‘or tajribalarning ommalashishi umumiy taraqqiyot sur’atini oshiradi.

Har qanday xalqaro tashabbusning haqiqiy qiymati uning hayotdagi natijasi bilan belgilanadi. Shu bois, endi asosiy vazifa – Bishkek sammitida ilgari surilgan g‘oyalarni aniq loyihalarga aylantirish. Bu yangi transport yo‘laklari, investitsiyaviy loyihalar, texnologik sheriklik, ta’lim dasturlari, madaniy almashinuvlar va odamlar hayotiga bevosita ta’sir qiladigan amaliy natijalar demakdir.

Prezidentimiz tashabbuslarining eng muhim mezoni ham shu: xalqaro hamkorlik, avvalo, inson manfaatiga xizmat qilishi kerak. Ana shunda “ShHT plyus” oddiy muloqot formati bo‘lib qolmaydi. U yangi imkoniyatlar, umumiy taraqqiyot va amaliy hamkorlikning samarali maydoniga aylanadi.

Bugun O‘zbekiston mintaqadagi jarayonlarni kuzatib turuvchi emas, balki ularga amaliy hissa qo‘shayotgan faol davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bishkekda ilgari surilgan tashabbuslar ham ana shu siyosatning izchil davomidir. Tinchlik, ochiq muloqot va o‘zaro manfaat – yangi hamkorlik arxitekturasining mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston esa ana shu yo‘lni tanlagan va bu yo‘lda amaliy tashabbus bilan harakat qilmoqda.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi a’zosi.

“ShHT plyus”:

O‘ZBEKISTONNING TINCHLIK VA KO‘P QUTBLI HAMKORLIKKA QARATILGAN SA’Y-HARAKATLARI

Prezidentimizning Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan “ShHT plyus” formatidagi uchrashuvda ilgari surgan tashabbuslari O‘zbekistonning o‘zgarib borayotgan dunyo tartiboti sharoitidagi aniq va konstruktiv pozitsiyasini namoyon etdi. Mazkur tashabbuslar nafaqat xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi, balki ularning amaliy natijadorligini ta’minlashga qaratilgani bilan ham ahamiyatli.

Shu bois siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari a’zolari Prezidentimiz nutqida ko‘tarilgan masalalar yuzasidan o‘z pozitsiyalarini bildirdi.

Barqaror o‘sish sari yagona makon

Oybek RAHIMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a’zosi:



– Dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi murakkab davrda Shanxay hamkorlik tashkiloti tinchlik, barqarorlik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta’minlashga xizmat qilayotgan nufuzli xalqaro platformalardan biri sifatida o‘z ahamiyatini tobora mustahkamlamoqda. Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan ShHTga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining yubiley yig‘ilishida Prezidentimizning ishtiroki va ilgari surgan muhim tashabbuslari mamlakatimizning tashkilot doirasidagi faol va konstruktiv pozitsiyasini yana bir bor namoyon etdi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, ShHT chorak asr davomida o‘zining zarurligi va samaradorligini isbotladi. Tashkilot “Shanxay ruhi” tamoyillari asosida teng huquqli muloqotni qaror toptirib, davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlashga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Bu jarayonda O‘zbekistonning o‘rni va tashabbuslari muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz ShHT tuzilgan dastlabki kunlardanoq uning ochiq, tinchliksevar va bloklardan xoli hamkorlik platformasi sifatida rivojlanishini izchil qo‘llab-quvvatlamoqda.

Ayniqsa, Markaziy Osiyoning ShHTning geografik va strategik o‘zagi sifatidagi ahamiyati tobora ortib borayotgani diqqatga sazovor. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, transport va logistika imkoniyatlaridan samarali foydalanish barcha mamlakatlarning umumiy manfaatiga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “ShHT – 2040: umumiy taraqqiyot makoni” konsepsiyasini ishlab chiqish tashabbusi ayni muddaodir. Zero, kelajakdagi taraqqiyot nafaqat siyosiy muloqot, balki investitsiyalar, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar, bilim va tajriba almashinuviga ham bevosita bog‘liq.

“Umumiy taraqqiyot makoni” g‘oyasi zamirida ana shu maqsad mujassam. Ya’ni investitsiyalar, texnologiyalar va bilimlar erkin harakatlanadigan, yirik infratuzilma va sanoat loyihalari amalga oshiriladigan, mamlakatlar, mintaqalar, biznes va odamlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar kengayadigan o‘zaro bog‘liq makonni barpo etish.

Global iqlim o‘zgarishlari va ekologik xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi sharoitda davlatimiz rahbarining atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ilgari surgan tashabbuslari yig‘ilishning eng dolzarb mavzularidan biriga aylandi.

Xususan, ekologik barqarorlikni ta’minlash, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish va Orol fojiasi kabi global ekologik muammolarga qarshi mintaqaviy miqyosda birgalikda kurashish zarurligiga alohida e’tibor qaratildi. Tashkilot doirasida qo‘shma ekologik dasturlarni amalga oshirish, resurstejamkor va chiqindisiz texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat tabiatni asrash, balki aholi salomatligi va xavfsizligini kafolatlashga xizmat qiladi. Prezidentimiz tomonidan ShHT makonida atrof-muhitni muhofaza etish va iqlim o‘zgarishlariga moslashish bo‘yicha hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish taklifi ilgari surilgani ham O‘zbekistonning bu boradagi mas’uliyatini yaqqol ko‘rsatadi.

E’tiborlisi, bugungi kunda mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni faqat siyosiy muloqot bilan cheklab bo‘lmaydi. Barqaror tinchlik mustahkam iqtisodiy aloqalar, ekologik xavfsizlik, o‘zaro manfaatli loyihalar va xalqlar o‘rtasidagi yaqin munosabatlar bilan ta’minlanadi. Shu ma’noda, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslarning har biri aniq amaliy mazmunga ega. Ularda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash bilan bir qatorda, iqtisodiy taraqqiyot, investitsiya, innovatsiya, ekologik muvozanat va inson farovonligini yuksaltirishdek ezgu maqsadlar uyg‘unlashgan.

Jiddiy muhokamalar maydoni

Manzura SALIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, “Adolat” SDP fraksiyasi a’zosi:



– Global siyosiy maydonda ishonch inqirozi chuqurlashib borayotgan bir paytda Bishkekda muhim g‘oya ilgari surildi: dunyoga tarqoqlik emas, adolatli muvozanat va amaliy manfaatlarga asoslangan muloqot zarur. “ShHT plyus” shaklidagi navbatdagi sammit aynan shu mazmundagi jiddiy muhokamalar maydoniga aylandi.

Avvalo, ta’kidlash joiz, O‘zbekiston ShHTni jahon siyosat va iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadigan nufuzli xalqaro tuzilma sifatida e’tirof etdi. Mamlakatimizning tashkilot faoliyatidagi ishtiroki milliy manfaatlarga to‘la mos kelib, xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy o‘sish va barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ShHT asoschilaridan biri sifatida tashkilot doirasida faol ishtirok etib, xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar hamkorlik hamda raqamlashtirish borasida qator tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Navbatdagi sammitda aytilgan yangi takliflar dadil siyosiy harakatning mantiqiy va sifat jihatdan yanada yuqori bosqichga ko‘tarilganini namoyish etdi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarning markazida Yevroosiyo makonida geoiqtisodiy integratsiya, iqtisodiy kooperatsiya va infratuzilmaviy o‘zaro bog‘liqlikni yangi bosqichga olib chiqish masalasi turdi.

Bugungi tahlikali sharoitda strategik mustaqillik va barqarorlikka erishishning yagona va muqobilsiz yo‘li – bu aynan samarali o‘zaro bog‘liqlik. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, jahonga yangi sun’iy ajratuvchi chiziqlar va blokli qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradigan kuchlar muvozanati emas, barcha taraflar uchun teng imkoniyatlar makonini kengaytiradigan ko‘p qutblilik zarur. Bu borada turli mintaqaviy loyihalar bir-biri bilan raqobatlashmasligi, aksincha, bir-birini to‘ldirishi va to‘lqinlantirishi lozim.

Ta’kidlash joizki, iqtisodiy kooperatsiyaning markaziy o‘ringa olib chiqilishi bejiz emas. Bugun odatiy deklaratsiyalar davri o‘tdi: endilikda real geoiqtisodiy natijalar, raqamlar va aniq loyihalar davri keldi. Biznes ahli, tadbirkorlar va investorlar xalqaro anjumanlardan so‘ng o‘z faoliyatida aniq yengilliklarni his qilishlari shart. Bu esa bozorlarga kirish tartib-taomillarini tubdan soddalashtirish, bojxona to‘siqlarini olib tashlash va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini jadallashtirishni talab etadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan “ShHT Invest” forumiga doimiy faoliyat yurituvchi platforma tusini berish bo‘yicha aytilgan taklif aynan mana shu ehtiyojning eng muhim siyosiy-iqtisodiy yechimidir. Ushbu platforma navbatdagi uchrashuvlar maydonigina bo‘lib qolmay, Yevroosiyoning sun’iy to‘siqlardan xoli, yagona savdo va investitsiya makoniga aylanishida kuchli amaliy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

“Xalq so‘zi”.

UMUMIY TARAQQIYOT TAMOYILLARINI MUSTAHKAMLASH ASOSI

Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining yubiley yig‘ilishi hamda “ShHT plyus” formatidagi uchrashuv tashkilotning 25 yillik taraqqiyot yo‘lini sarhisob qilish, bugungi murakkab geosiyosiy va iqtisodiy sharoitda mavjud tahdidlarga birgalikda yechim topish, shuningdek, hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olish nuqtayi nazaridan katta ahamiyat kasb etdi.

Davlatimiz rahbari har ikki tadbirda O‘zbekistonning ochiq, pragmatik va o‘zaro manfaatli sheriklikka asoslangan qat’iy pozitsiyasini yana bir bor bayon qildi. Ilgari surilgan tashabbuslar mamlakatimizning ShHT doirasidagi hamkorligini aniq amaliy natijalar bilan boyitishga intilayotganini ko‘rsatdi.



Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan “ShHT – 2040: umumiy taraqqiyot makoni” konseptual qarashi tashkilot faoliyatini uzoq muddatli maqsadlar asosida rivojlantirish nuqtayi nazaridan alohida e’tiborga molik. Mazkur yondashuv investitsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va bilimlar almashinuvini kengaytirish, yirik infratuzilma hamda sanoat loyihalarini amalga oshirish, biznes subyektlari va hududlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni kuchaytirishni nazarda tutadi.

Ayniqsa, ShHT Sanoat kooperatsiyasi xaritasini yaratish, Taraqqiyot bankini amaliy ishga tushirish, transport, energetika, raqamli infratuzilma va sanoat sohalarida qo‘shma loyihalar portfelini shakllantirish borasidagi takliflar iqtisodiy hamkorlikka yangi mazmun bag‘ishlaydi. Bu tashabbuslar a’zo davlatlarning mavjud salohiyatini birlashtirish, o‘zaro savdo va investitsiya hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari ochish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanayotgani ham inobatga olindi. Sun’iy intellekt, ko‘p tilli ma’lumotlar korpusi va yangi raqamli yechimlar bo‘yicha forum o‘tkazish tashabbuslari O‘zbekistonning zamonaviy texnologik jarayonlarda faol ishtiroki, innovatsion hamkorlikni kengaytirish va raqamli taraqqiyot uchun umumiy maydon yaratishga intilishini namoyon etadi.

Suv, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bo‘yicha yagona kun tartibini shakllantirishga qaratilgan takliflar esa mintaqaning uzoq muddatli barqarorligi uchun nihoyatda dolzarb. Shuningdek, temir yo‘l makonlari integratsiyasi, transport-tranzit imkoniyatlaridan samarali foydalanish, Afg‘oniston bilan muntazam muloqotni tiklash hamda Toshkentda xavfsizlikka tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha universal markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish tashabbuslari nafaqat ShHT, balki butun Markaziy Osiyoning tinchligi va barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

“ShHT plyus” uchrashuvida bildirilgan takliflar mazkur yondashuvning mantiqiy davomi bo‘ldi. Xususan, “ShHT Invest” forumini doimiy platformaga aylantirish, mintaqalararo loyihalar va texnologiyalarning Ochiq bankini shakllantirish kabi mexanizmlar ShHT makonining iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, investorlar va tadbirkorlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni yo‘lga qo‘yish, yangi texnologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, amaliy hamkorlikning bunday shakllari tashkilot doirasidagi sheriklikni deklarativ bayonotlardan aniq natijalarga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Imzolangan Bishkek deklaratsiyasi va boshqa muhim hujjatlar, xususan, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan amaliy tashabbuslar ShHT doirasida o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va umumiy taraqqiyot tamoyillarini yanada mustahkamlash uchun muhim asos bo‘ldi.

Bugun bu yirik tuzilma oldida turgan asosiy vazifa – ulkan iqtisodiy, transport, texnologik va inson kapitali salohiyatini bir maqsad yo‘lida samarali birlashtirishdir. O‘zbekistonning taklif va tashabbuslari esa ana shu maqsadga xizmat qiladigan amaliy mexanizmlarni shakllantirishga qaratilgani bilan ham ahamiyatli.

Gulnora MA’RUFOVA,
Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi a’zosi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuqori o‘sish sur’atini saqlagan holda, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmi 300 mlrd. dollarga yetkaziladi.

Senator va hayot

BOZORLAR – HUDUD MADANIYATI KO‘ZGUSI

Bozorlar nafaqat savdo-sotiq amalga oshiriladigan maskan, balki aholining kundalik ehtiyojlarini ta’minlash va xizmat ko‘rsatish madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu ma’noda, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi a’zosi Ikromxon Najmiddinov Namangan shahridagi “Chorsu” dehqon bozorida aholi va tadbirkorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

O‘rganish davomida bozordagi sanitariya holati, hududning obodonlashtirilishi, savdo rastalarining faoliyati hamda xaridorlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga e’tibor qaratildi.

Shuningdek, narx-navo, mahsulotlar bilan ta’minlanganlik va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga doir masalalar ham o‘rganildi. Bozor ma’muriyati mas’ullari bilan bo‘lib o‘tgan muloqotda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, aholi uchun yanada qulay muhit yaratish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish masalalari muhokama qilindi.

O‘rganish yakunlari bo‘yicha aniqlangan ayrim kamchiliklarni bartaraf etish, bozor hududida tartib va ozodalikni ta’minlash, savdo hamda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Tadbir

SENATORLAR O‘QITUVCHI VA YOSHLAR HUZURIDA

Mamlakatimizdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!” shiori ostida yangi o‘quv yili boshlanganidan darak beruvchi birinchi qo‘ng‘iroq tadbirlari bo‘lib o‘tdi. Ularda Oliy Majlis Senati a’zolari hamda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari ham qatnashib, o‘quvchilar va pedagoglar bilan muloqot qildi.

Jumladan, Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Odiljon Mamatkarimov Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi 5-maktabda o‘tkazilgan bayram tadbirida ishtirok etgan bo‘lsa, senator Gulnora Ma’rufova esa poytaxtning Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 50-maktabda o‘quvchilarni yangi o‘quv yili bilan tabrikladi.

Senatorlar o‘quvchilarni boshlangan o‘quv yili bilan qutlab, mamlakatimizda yoshlarning sifatli ta’lim olishi, o‘z iqtidor va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar xususida so‘z yuritdi. Shuningdek, yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, yurt taqdiriga daxldorlik va yuksak fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalashning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuvlarda mamlakatimiz mustaqilligining tarixiy ahamiyati, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar hamda ularning kelajakdagi maqsad va intilishlari xususida fikr almashildi. Mustaqillik darslari davomida maktab o‘quvchilariga O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li, mamlakatimizni yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida so‘zlab berildi.

Shuningdek, Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi a’zosi Pokiza Ahmedjonova Sirdaryo viloyatining Guliston shahridagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabida o‘tkazilgan bayram shodiyonasida ishtirok etdi.

Tadbirda senator barchani Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi bilan samimiy tabrikladi. Maktab o‘quvchilariga murojaat qilar ekan, ularga ulkan muvaffaqiyatlar, tashabbuskor, maqsadli, kuch va g‘ayratga to‘la bo‘lishlarini tiladi, bolalar tajribali ustozlar rahbarligida bilimni chuqur o‘zlashtirib, o‘z yutuqlari bilan Vatan sharafini, albatta, ulug‘lashiga ishonch bildirdi.

Senatorlarning bu kabi faolligi respublikamizning boshqa tuman va shaharlarida ham davom etdi.

“Xalq so‘zi”.

Deputatlar – hududlarda

XALQ BILAN MULOQOT, AMALIY ISHLAR VA NATIJALAR

Mustaqilligimizning 35 yillik bayrami shukuhi davom etayotgan bir paytda hududlarda xalq vakillarining saylovchilar bilan ochiq muloqotlari, aholi murojaatlarini o‘rganish va ularning yechimini ta’minlashga qaratilgan amaliy ishlar izchil olib borilmoqda.

Bu jarayonda bayramona ko‘tarinkilik bilan bir qatorda, xalqning ertangi kunga ishonchi va islohotlarga daxldorlik hissi ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Tibbiy xizmatlar sifati qoniqarlimi?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Noiba Inoyatova Qarshi shahridagi 5-oilaviy poliklinikada bo‘lib, muassasaning faoliyati, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va mavjud sharoitlarni o‘rgandi.

Jarayonda birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining sifati, kadrlar salohiyati, dori vositalari bilan ta’minlanganlik, moddiy-texnik baza hamda aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar muhokama etildi.

Mazkur poliklinika bugungi kunda 8 ta mahallada istiqomat qiluvchi 40 345 nafar aholiga, shuningdek, 7 ta maktab o‘quvchilari va 1 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga tibbiy xizmat ko‘rsatmoqda.

– Davlatimiz rahbarining bayram tabrigida ta’kidlanganidek, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida inson qadrini yanada yuksaltirish, aholi salomatligini muhofaza qilish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi, – dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Noiba Inoyatova. – Biz bugun hududlarimizdagi o‘rganishlarimizda tibbiyotda profilaktika kuchaytirilayotgani, kasalliklarning oldini olish ishlari qanchalik samara berayotganini joyida ko‘rib, guvohi bo‘lyapmiz.

O‘rganish davomida aholi o‘rtasida profilaktik targ‘ibot tadbirlarini kuchaytirish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda muassasaning kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holatini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, deputat Bunyodkor mahallasida yashovchi fuqaro Xusniddin Ravshanovning murojaati yuzasidan ham o‘rganish ishlarini olib bordi.

Oqqo‘rg‘onda yangi maktab

Istiqlol bayrami kunlarida Oqqo‘rg‘on tumanining Xalqobod mahallasida zamonaviy umumiy o‘rta ta’lim maktabining yangi binosi foydalanishga topshirilgani mahalla ahli, ustozlar va o‘quvchilarga katta quvonch bag‘ishlab, bayramona kayfiyatni yanada ko‘tardi.

Yangi maktab binosining tantanali ochilish marosimida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalla aholisi, o‘qituvchi va o‘quvchilar ishtirok etdi.

24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi uchun yangi o‘quv binosining barpo etilgani aholi tomonidan ko‘tarilgan muhim masalaning amaliy yechimi bo‘ldi. Mazkur xayrli ishga xalq vakillarining bosh-qosh bo‘lgani alohida tahsinga sazovor.

– Maktab uchun yangi bino qurish masalasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Viktor Pakning aholi bilan ochiq muloqoti davomida ko‘tarilgan edi, – deydi mehnat faxriysi M. Samadov. – Mahallamiz aholisi farzandlarimiz munosib ta’lim olishlari uchun xalq vakilidan amaliy ko‘mak so‘ragandi. Murojaatimiz e’tiborsiz qolmadi. Oradan ko‘p o‘tmay, umumiy qiymati 4 mlrd. so‘mni tashkil etgan qurilish ishlari boshlanib, Janubiy Koreyaning “Good Neighbours International” xalqaro yordam fondi ko‘magida zamonaviy maktab binosi barpo qilindi.

Tantanali marosimda davlat rahbarining bayram tabrigida ilgari surilgan tashabbuslar, xususan, ta’lim, ilm-fan, zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni izchil rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilishi alohida e’tirof etildi.

Murojaatdan – yechimga, muloqotdan – amaliy natijaga

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Mavluda Adhamjonova ayni kunlarda Andijon tumanida saylovchilar bilan uchrashib, hududda aholini o‘ylantirayotgan masalalarni o‘rganmoqda. E’tiborlisi, xalq vakili murojaatlarni qayd etish bilan cheklamasdan, ularning amaliy yechimini ta’minlashga e’tibor qaratmoqda.

Deputat tumandagi “Gumbaz” MFYda bo‘lib, dastlab “mahalla yettiligi” faoliyati bilan tanishdi. Muloqot davomida mahallaning bugungi hayoti, aholi murojaatlari, qonunchilikdagi so‘nggi o‘zgarishlar hamda mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan yurtimizda kechayotgan yangilanish jarayonlari xususida fikr almashildi.

Mahalla faollarining qayd etishicha, odamlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Jamoatchilik vakillari tomonidan aholi o‘rtasida huquqiy va siyosiy tushuntirish ishlari muntazam olib borilmoqda. Bu esa mahallada davlat siyosatiga daxldorlik, yurt obodligi va Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga hissa qo‘shish mas’uliyati tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, uchrashuv davomida inson taqdiri bilan bog‘liq qator masalalar ham aniqlandi. Xususan, ikki nafar fuqaroga sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolar tufayli jarrohlik amaliyoti zarurligi ma’lum bo‘ldi. Gulnoza Tojiboyevaning yashash xonadonini ta’mirlash masalasi ham alohida e’tibor talab etmoqda.

Ushbu murojaatlar yuzasidan mas’ul rahbarlar bilan birgalikda amaliy yechimlar izlandi. Tashabbusning tadbirkorlar va mas’ul rahbarlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani muammolarni joyida hal etish imkonini kengaytirmoqda.

Muloqotlar jarayonida ta’lim sohasiga oid masala ham ko‘tarildi. Xususan, hududdagi 41-maktabda inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish zarurati mavjudligi aniqlandi. Deputat mazkur masalani nazoratiga olib, yangi o‘quv yilida uni ijobiy hal qilish bo‘yicha mas’ullar bilan tegishli choralarni belgiladi.

Deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlari va aholi murojaatlarini o‘rganish ishlari davom etmoqda.

“Xalq so‘zi”.

Ulkan orzular ostonasida



Tadbirlar avvalida davlat madhiyasi yangradi. Shundan so‘ng Yurtboshimizning mamlakatimiz maktablari o‘quvchilari va ustoz-murabbiylariga yo‘llagan bayram tabrigi o‘qib eshittirildi.

So‘zga chiqqanlar yoshlarni yangi o‘quv yili bilan qutlab, ularga bilimlar ummoni sari intilishlarida ulkan zafar va omadlar tilashdi.

Qayd etish joizki, bu kun yurtimizdagi 795 ming nafardan ortiq bolajonlar uchun hayotlaridagi eng unutilmas kunlardan biri – maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan sana. Shodiyonani yanada unutilmas qilgan narsa – 1-sinfga chiqayotgan jajji o‘g‘il-qizlarga 12 nomdagi o‘quv qurollari, maktab sumkalari va darsliklar majmuasidan iborat “Prezident sovg‘asi” taqdim etilgani bo‘ldi. Quvonarlisi, joriy yil “Prezident sovg‘asi” to‘plamiga Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan Davlat bayrog‘i va gerbi aks etgan maxsus tasma ham qo‘shilgan.

Ma’lumot uchun aytish joiz, 2026/2027 o‘quv yilida mamlakatimizdagi mavjud 10 225 ta umumta’lim maktabida 550 mingdan ortiq o‘qituvchilar 6,7 mln. nafardan ziyod o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya beradi.

...Maktab bu oddiy bir bino emas, u kelajak poydevori, orzular kamoloti va komil inson tarbiyalanadigan muqaddas maskan, bilim hamda tafakkur xazinasi sari ochilgan yangi ufqlardir. 2-sentyabr kuni chalingan birinchi qo‘ng‘iroqlar O‘zbekiston bo‘ylab millionlab o‘g‘il-qizlarimizni yana bir bor ushbu ma’rifat koshonasida birlashtirdi.

Rahmatjon BOBOJONOV (“Xalq so‘zi”).
Akmal MUHAMMADOV olgan suratlar.

Hindiston va O‘zbekiston:

RIVOJLANISH BOSQICHIDAGI MUNOSABATLAR

Keyingi yillarda Hindiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar ma’no hamda mazmun jihatdan yanada faollashdi.
Bu do‘stlik faqat diplomatik aloqalar bilan cheklanmaydi. Negaki, ikki mamlakat o‘rtasida asrlar davomidagi tarixiy, madaniy va sivilizatsion bog‘liqliklar mavjud.

Dunyo nigohi



Qadimgi savdo yo‘llaridan boshlab til, ilm, san’at hamda madaniyatgacha bo‘lgan uzoq tarixiy aloqalar o‘zaro yaqinlikni yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy davrda mazkur tarixiy aloqa asta-sekin mustahkam diplomatik, iqtisodiy va strategik sheriklikka aylandi. Bosh vazir Narendra Modining shu yil 29-30-avgustda O‘zbekistonga qilgan davlat tashrifi shu uzluksiz jarayonning muhim halqasidir. Ushbu tashrif Markaziy Osiyo jahon siyosati, iqtisodiyoti, energetikasi va mintaqaviy ulanishlar nuqtayi nazaridan tez sur’atlar bilan ahamiyat kasb etayotgan bir paytda amalga oshirildi. Hindiston uchun ham Markaziy Osiyo muhim mintaqa bo‘lib, so‘nggi yillarda Hindiston bu mintaqa bilan munosabatlarini yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratdi.

Bosh vazir N. Modining O‘zbekistonga mazkur tashrifi to‘rtinchisi. Unga qadar u 2015-yil iyul, 2016-yil iyun va 2022-yil sentyabr oylarida yurtimizda bo‘lgan. Asosiy maqsad ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni turli sohalarda kengaytirishdan iborat.

Tashrifning eng muhim natijasi Hindiston – O‘zbekiston munosabatlarini strategik sheriklikdan Kompleks strategik sheriklikka ko‘tarish to‘g‘risidagi qaror bo‘ldi. Ikki mamlakat 2011-yilda strategik sheriklikni o‘rnatgan edi va endi uning 15 yilligi munosabati bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishga qaror qilindi. Bosh vazir Narendra Modi hamda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkentdagi muzokaralardan so‘ng ushbu qarorni e’lon qildi.

Bu faqat nom o‘zgarishi emas. Uning asl ma’nosi shundaki, endi ikki mamlakat o‘z munosabatlarini kengroq doirada ko‘rib chiqmoqda. Bu doiraga siyosat bilan birga iqtisodiyot, savdo, texnologiya, ta’lim, madaniyat, mudofaa va xavfsizlik kabi sohalar ham kiradi.

Iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash tashrifning yana bir muhim jihati bo‘ldi. Ikki mamlakat 2030-yilga qadar o‘zaro savdo hajmini 5 mlrd. AQSH dollariga yetkazish maqsadini belgiladi. Hozirgi savdo hajmi 1 mlrd. AQSH dollaridan ortiq bo‘lib, taxminan 1,3 mlrd. dollarga yetgan. 5 mlrd. dollarlik maqsad oson emas, ammo ikki hukumat bu yo‘nalishda amaliy choralar ko‘rishga kelishdi.

Bozorlarga kirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish, notarif to‘siqlarni kamaytirish, bank va to‘lov tizimlarini takomillashtirish hamda sanoat hamkorligini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Ikki mamlakat imtiyozli savdo bitimi tomon ham harakat qilishga tayyor.

Shuningdek, ishbilarmonlar ishtirokida biznes-sammit o‘tkazish haqida ham bir qarorga kelindi. Bu investitsiyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi va xususiy sektorlarni bir-biriga yaqinlashtirishi mumkin.

Alohida ta’kidlash joizki, tashrifning muhim natijalaridan biri – uran sohasidagi hamkorlik bo‘ldi. Ikki davlat Hindistonning fuqarolik yadro dasturi uchun uranni uzoq muddatli yetkazib berish bo‘yicha kelishuvga erishdi. Bu yerda aniqlashtirish zarurki, tashrif davomida siyosiy iroda va ijobiy siljish kuzatildi, ammo miqdor, narx hamda yetkazib berish muddatlari bo‘yicha yakuniy tijorat shartnomasi hali tuzilmagan edi. Mamlakatlarimiz o‘rtasida muzokaralar davom etmoqda va rasmiy shartnoma kutilmoqda.

O‘zbekiston dunyoning muhim uran ishlab chiqaruvchi davlatlaridan biridir. Hindiston uchun yadro yoqilg‘isining xavfsiz va xilma-xil manbalari muhim. Shu sababli O‘zbekiston bilan uzoq muddatli hamkorlik Hindistonning energiya xavfsizligi uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, geologiya fanlari va mineral resurslar sohasida ham hamkorlik memorandumi imzolandi. Unda muhim minerallar, qidiruv va konchilik sohalari qamrab olingan. Umuman, tashrif davomida 11 ta muhim kelishuv va hamkorlik memorandumi imzolandi. Bularning barchasi ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni yanada yuqori bosqichga olib chiqadi.

Shohid TASLIM,
Javoharlal Neru universiteti professori.
Yangi Dehli

MILLIY YUKSALISH DAVRI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi yurtimiz ahli ruhiga ilhom, diliga quvonch va surur, orzumand qalblarga ishonch va shodlik baxsh etdi.

Fikr

Eng ulug‘ bayramimiz Yangi Toshkentda o‘tkazilgani tantana shukuhini yanada oshirdi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, kelgusida ilm-fan, ta’lim va madaniyat markaziga aylanadigan ushbu hududda kuni kecha Yangi O‘zbekiston universiteti, Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, O‘zbekiston Milliy kutubxonasining muhtasham binolari ishga tushirildi. Bayram kuni ochilgan dunyodagi eng baland musiqali favvoraning “Ginnesning rekordlar kitobi”dan joy olgani esa tantanaga yanada baland ruh bag‘ishladi.

Yangi Toshkentda qisqa muddatda zamonaviy ta’lim va ma’rifat maskanlarining qad rostlashi mustaqillikning 35 yillik zarvarag‘ida muhrlanadigan ulkan bunyodkorlik ramzidir. Bu noyob maskanlar nafaqat mamlakatimiz taraqqiyotiga, balki dunyo ilm-fani va tamadduniga munosib hissa qo‘shishi muqarrar.

Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek:
Kim bu gulistonkim erur bir jahon,
Balki jahone gul ichida nihon.

Haqiqatda, Yangi Toshkent – bir jahon. Unda ilm, ma’rifat, bunyodkorlik va ezgu niyatlar gullab-yashnaydi. Turfa rang yog‘du taratuvchi musiqali favvora esa bu bo‘stonning o‘ziga xos shamchirog‘idek.



Nutqning mohiyatida inson qadrini ulug‘lash, Yangi O‘zbekistonni barpo etish orqali xalqimiz uchun farovon va munosib hayot makonini yaratish g‘oyasi mujassam.

Prezidentimizning zamonaviy reformator va islohotchi lider sifatida xalqaro maydonda e’tirof etilayotgani, yurtimiz qiyofasi tubdan o‘zgarayotgani, tarixiy merosimiz tiklanib, iqtisodiy salohiyatimiz yuksalayotgani – Yangi O‘zbekiston g‘oyasining amaldagi ifodasidir.

Prezidentimiz “Muhtaram yurtdoshlar!” deya murojaat qilar ekan: *“Bugun biz tarixning yanada mas’uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Kelgusi o‘n yillik – biz uchun milliy yuksalish davri bo‘ladi”,* dedi.

Bu – shunchaki chiroyli shior emas, balki mamlakat kelajagining aniq dasturiy konsepsiyasi. Davlatimiz rahbari tomonidan e’lon qilingan yetti milliy dasturning har biri alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, birinchi milliy dasturning bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishga qaratilgani e’tiborlidir.

Unda qisqa muddatda bolalarni maktabning tayyorlov guruhlariga 100 foiz qamrab olish, xususiy bog‘chalar uchun mavjud imtiyozlarni saqlash, maktablarni xalqaro baholash dasturlariga to‘liq o‘tkazish, texnikumlarda xalqaro standartlarni joriy etish, yoshlarni yuqori daromadli kasblarga o‘qitishni yo‘lga qo‘yib, qamrovni 1 million nafarga yetkazish hamda 10 ta universitetni dunyoning “TOP – 1000”taligiga kiritish kabi ulkan marralar belgilangan. Bu Yangi O‘zbekiston poydevorini mustahkamlashga qaratilgan strategik vazifalardir.

Ikkinchi milliy dastur xalqimizning sog‘lom va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga xizmat qiladi. Unda aholi salomatligi bilan bog‘liq davlat xarajatlarini kelgusi besh yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5 foizga yetkazish, tibbiyot sohasiga dunyoning eng nufuzli kamida beshta klinikasini jalb etish kabi vazifalar belgilangan. Uning zamirida salomatlikni asrashdek ulug‘ insonparvarlik g‘oyasi mujassam.

Uchinchi milliy dastur – iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish. Unda kelgusi o‘n yilda 450 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilish, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 mlrd. dollarga yetkazish, sanoatda 2 mln. yuqori daromadli ish o‘rni yaratish, startap, venchur va sun’iy intellektni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishga aylanishi belgilangan.

Kichik biznesning o‘rta biznesga, o‘rta korxonalarning yirik kompaniya va korporatsiyalarga aylanishi uchun yaxlit ekotizim yaratish, kelgusi o‘n yilda jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 10 ming dollardan oshirish kabi maqsadlar iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichidan dalolat beradi.

Prezidentimiz tahlilga tortgan har bir masala qadr-qiymati jihatdan o‘ta dolzarb milliy vazifadir. Ularni kasb-u korimizdan qat’i nazar, kunlik, oylik va yillik mehnat faoliyatimiz uchun dasturilamal sifatida qabul qilishimiz kerak.

Nutq yakunidagi quyidagi so‘zlar esa har birimiz uchun hayotiy shior bo‘lishi lozim: *“Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz. O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q. Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o‘zi yo‘q. Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!”*

Bu chaqiriq nafaqat bayram nutqining yakuni, balki Yangi O‘zbekistonning yangi o‘n yilligi – milliy yuksalish davrining dasturiy shiori sifatida har birimiz qalbimizdan joy olmog‘i shart.

Is’hoqxon NOSIROV,
Angren universiteti dotsenti.

Endilikda davlat organi va tadbirkor o‘rtasida yuzaga keladigan ommaviy huquqiy munosabatlarda “tadbirkorlik subyektining haqlilik prezumpsiyasi” amal qiladi.

AES – YUQORI TEXNOLOGIK QUVVAT MANBAI

U energiyaga talab muttasil oshib borayotgan O‘zbekiston uchun juda zarur



1

Anvar TO‘YCHIYEV,
Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi:

– Prezidentimiz tashabbusi bilan ro‘yobga chiqarilayotgan bu olamshumul loyihaga puxta tayyorgarlik ko‘rilganini alohida ta’kidlash joiz. Davlatimiz rahbari bu ulkan loyihadagi qurilish-montaj ishlarining ulushi avval rejalashtirilganidek 30 emas, balki 65 foizini milliy korxonalar bajarishi zarurligini ko‘rsatib o‘tdi. Shuningdek, bunyodkorlik jarayonida ishchi va mutaxassislar hamda oilalarining munosib yashash sharoitiga ham e’tibor qaratildi. Shu maqsadda atomchilar shaharchasini barpo etish rejasi tahlil etildi. Bu ham O‘zbekiston mazkur masalaga jiddiy e’tibor qaratayotganini anglatadi.

Yana bir muhim jihat. Tinchlik maqsadlarida atom energiyasidan foydalanishning huquqiy asoslari keng jamoatchilik, tegishli davlat idoralari tomonidan xorij tajribasini e’tiborga olgan holda ishlab chiqilishiga ancha ilgari kirishilgan edi. Prezidentimiz tomonidan 2019-yil 9-sentyabrda imzolangan O‘zbekiston Respublikasining “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni fikrimiz isboti. O‘tgan yili parlamentning har ikki palatasi bu qonunni yanada takomillashtirishga jiddiy kirishdi va bu davr talabi edi. Tegishli qo‘mitalarda huquqiy ekspertlar ishtirokida muhokamalar o‘tkazildi. Va “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar 10-sentyabrda Qonunchilik palatasida qabul qilinib, 18-dekabrda Senat tomonidan ma’qullandi.

Qonunning bosh maqsadi – atom energiyasidan foydalanishda yadroviy va radiatsion xavfsizlikni ta’minlash, aholi salomatligi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratishdan iborat. Shuningdek, mazkur hujjatda atom energetikasi obyektlarini qurish, ishlatish va nazorat qilish bo‘yicha davlat siyosati mexanizmlari o‘z aksini topgan. Qonunga kiritilgan eng muhim o‘zgarishga ko‘ra, “O‘zatom” agentligi atom energiyasidan foydalanish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi markaziy organ sifatida faoliyat yuritadi. Muxtasar aytganda, bugun Forish tumanida poydevori bunyod etilayotgan AESning barcha yumushlariyu nozik jihatlariga bosh-qosh, to‘liq javobgar bo‘ladi.

Ikkinchi muhim yangilik – Energetika vazirligining atom energetikasi sohasidagi vazifalari qonun darajasida mustahkamlandi. Bu atom energetikasi loyihalarini umumiy energetika strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Uchinchi jihat – mahalliy davlat hokimiyati organlarining mas’uliyati kengaytirildi. Endi hududlarda atom obyektlarini joylashtirish, aholini xabardor qilish va xavfsizlik choralarini ta’minlash bo‘yicha mahalliy organlarning ishtiroki ustuvor bo‘ladi. Har qanday iqtisodiy manfaatdan oldin inson hayoti, sog‘lig‘i va ekologiya muhofazasi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Ochiqlik va axborotning mavjudligi ta’minlanadi. Fuqarolar atom energetikasi obyektlari faoliyati haqida qonun doirasida axborot olish huquqiga ega bo‘ladi. Bu jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim qonun talabi – xalqaro standartlarga muvofiqlik. Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasida xalqaro majburiyatlarga rioya qilishni o‘z zimmasiga oldi va bu tamoyil huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Ana shu sababli, mazkur qonun nafaqat atom elektr stansiyalari qurilishi uchun, balki yadro tibbiyoti, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ilmiy tadqiqotlarda radiatsion texnologiyalardan xavfsiz foydalanish uchun ham huquqiy asos yaratadi.


Zilola SHOMANSUROVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori:

– Mutaxassislar qayd etganidek, bugun asosiy yuk issiqlik va gidroenergiya stansiyalari zimmasiga tushayotir. Quyosh va shamol stansiyalari yalpi ehtiyojning 15 foizini qoplamoqda va bu tizim iqlim bilan bog‘liqligi bois ishlab chiqarish salohiyati biroz cheklangan. Issiqlik elektr stansiyalari esa istaymizmi-yo‘qmi, ekologiyani buzadi, ishlab chiqarilgan energiya tannarxi ham juda qimmat. Eng qulayi – bu dunyo tajribasi isbotlayotgani kabi atom energiyasi.

Bugun dunyo bo‘yicha 400 dan ortiq reaktorlar ishlab turibdi va turli davlatlarda yana 70 tasi qurilmoqda. Yuqori texnologik sanoatni rivojlantirish uchun turg‘un, shu bilan birga, ekologik toza va nisbatan arzon elektr energiyasi manbai sifatida jahon hamjamiyati, jumladan, O‘zbekiston ham o‘z e’tiborini atom energetikasiga qaratmoqda.

Negaki, u ekologik jihatdan eng toza energetika manbaidir. Aytaylik, ko‘mirda ishlaydigan 1 GVt quvvatli IES bir yilda 6 mln. tonna yuqori sifatli toshko‘mir yoqadi va shunga yarasha SO_2 hamda kul hosil bo‘ladi. Xuddi shunday quvvatli atom elektr stansiyasida zararli uglerod gazi juda kam. Ishlatilgan yadro yoqilg‘isi qimmatbaho xomashyo hisoblanadi, uni yanada chuqur qayta ishlab yadro tibbiyotida va sanoatda ishlatiluvchi qator radionuklidlarni ajratib olish mumkin.

Bundan tashqari, yadroviy yoqilg‘i juda katta energiya sig‘imiga ega. Atigi 4 foiz boyitilgan 1 kg. uran oksidi 100 tonna toshko‘mir yoki 60 tonna neft yonganda ajralib chiqadigan energiyani beradi. Shuningdek, atom



energetikasi 1 kVt energiya uchun turg‘un narxga ham ega. Chunki IESda yoqilg‘i narxi ishlab chiqarilgan elektr energiya tannarxining 65 – 70 foizini tashkil etadi. Demak, yoqilg‘i narxi 2-marta oshsa, elektr energiya narxi kamida 1,5 barobar ortadi. Atom energetikasida esa bu raqam 6 foizdan oshmaydi.

Agar keyingi yillarda “Navoiyuran” davlat korxonasining xorij bilan texnologik aloqalari kuchayib borayotganini, O‘zbekiston uran ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 5-o‘ringa ko‘tarilganini nazarda tutsak, bu raqamlar nechog‘li muhim ekani oydinlashadi.

Azim AHMADXO‘JAYEV,
“O‘zatom” agentligi direktori:

– O‘zbekistonda atom energetikasini rivojlantirish mamlakatning energetik xavfsizligini ta’minlash va iqtisodiyotning o‘sib borayotgan elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

“O‘zatom” agentligi Prezidentimizning 2024-yil 24-maydagi tegishli farmoni va qaroriga muvofiq qayta tashkil etilgan davlat boshqaruvi tizimi doirasida atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organ sifatida faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda agentlik atom energetikasi va yadroviy texnologiyalarni rivojlantirish, sohadagi investitsiya va infratuzilma loyihalarini muvofiqlashtirish, yadroviy materiallar, ishlatilgan yadroviy yoqilg‘i hamda radioaktiv chiqindilar bilan bog‘liq faoliyatni yuritish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Barcha jarayonda xavfsizlik ustuvor tamoyil hisoblanadi va bu borada tegishli davlat organlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

AES loyihasini amalga oshirishda mahalliy sanoat korxonalari ishtirokini kengaytirish, milliy kadrlar salohiyatini rivojlantirish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish o‘ta muhim vazifa. Bu nafaqat loyihaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga, balki mamlakatda yangi sanoat majmualarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Loyiha bo‘yicha qarorlar xalqaro tajriba, xavfsizlik talablari, texnik yechimlar, iqtisodiy samaradorlik va milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda qabul qilinmoqda. Shu munosabat bilan turli mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, mutaxassislar tayyorlash va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash izchil davom ettirilmoqda.

Atom energetikasi sohasidagi loyihalar jarayonida Rossiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Xitoy, AQSH va boshqa mamlakatlarning tashkilotlari, ilmiy markazlari hamda ekspertlari ishtirok etmoqda. Bu O‘zbekistonning atom energetikasini rivojlantirishda ochiq va ko‘p tomonlama hamkorlik tamoyillariga amal qilayotganini ko‘rsatadi.

Ilhom SODIQOV,
O‘zFA Yadro fizikasi instituti direktori, akademik:

– Mamlakatimizda atom energetikasini rivojlantirish masalasi kecha yo o‘tgan kuni boshlangan g‘oya emas. Davlatimiz rahbari faoliyatining ilk davridayoq institutimizga kelgan, haqiqiy ahvol bilan yaqindan tanishgan va faoliyatimizga yangi ruh bag‘ishlagan edi. 2017-yilda O‘zbekistonda atom energetikasini rivojlantirish bo‘yicha ishlar boshlanganda Prezidentimiz malakali mahalliy mutaxassislar bormi, soha uchun kadrlar qayerda tayyorlanadi, degan haqli savolni o‘rtaga tashlagan edi.

Muammoning yechimi sifatida O‘zMUda Yadro texnologiyalari kafedrasi, Toshkent texnika universitetida Yadro energetikasi kafedrasi, SamDU, Jizzax davlat universitetida yangi o‘quv yo‘nalishlari tashkil etildi. Bundan tashqari, sohaga oid qator texnikumlar ish boshladi. 2019-yili Toshkent shahrida Moskva muhandislik fizikasi instituti (MIFI)ning filiali ochilib, bu o‘quv yurti atom energetikasi uchun kadrlar tayyorlashda bazaviy tashkilot sifatida tanlandi. Bugun mazkur filial bevosita institutimiz hududida joylashgani bois talabalar amaliyotni laboratoriyalarimizda, xususan, VVR-SM tadqiqot yadro reaktorida o‘tashmoqda. Albatta, atom energetikasi sohasida xorij tajribasi juda muhim. Shunga ko‘ra, bugun o‘nlab iqtidorli yoshlarimiz Bangladesh, Vengriya, Turkiyada qurilayotgan atom elektr stansiyalarida malaka oshirayotir.

Atom energetikasi yurtimiz uchun yangilik emas. Bu sohaga bundan 70 yil avval e’tibor qaratilib, 1956-yilda Yadro fizikasi instituti tashkil etilgan. 1958-yilda 10 MVt quvvatga ega tadqiqot yadro reaktori ishga tushirildi va 67 yildirki, mazkur reaktor ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi sifatida olimlar ixtiyorida.

Albatta, Forish tumanida qad rostlaydigan AES qurilishi va uni foydalanishga topshirish jarayonida o‘zbek olimlari ham chetda turmaydi. U davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, xalqimizning tinch va farovon yashashiga xizmat qiladigan, milliy iqtisodiyotimizning tom ma’noda drayveriga, yuksak texnologik jarayonli markazlarga uzluksiz energiya yetkazib beradigan quvvat manbaiga aylanadi.

Muzaffar KAZAKOV,
xalq deputatlari Forish tumani Kengashi deputati:

– Bu loyihaning amalga oshishi suv havzasiga tutashgan cho‘l bag‘rida yangi shahar paydo bo‘lishi, texnologik markaz qurilishi demakdir. Aslida, bu yangilikni xalqimiz intiqlik bilan kutgandi. Bugun davlatimiz rahbari boshlab bergan tashabbus hayotga ko‘chayotir. AES uchun tumanimiz tanlangani ham bejiz emas. Iqlim, tabiiy sharoit, umuman, barcha jihatlar mutaxassislar, soha olimlari ishtirokida chuqur tahlil qilindi. Parlamentimizda bu boradagi qonunchilik ham jiddiy tahlildan o‘tkazilib, takomillashtirildi.

Qonun ijodkorligida mahalliy Kengash deputatlari, keng jamoatchilik faol ishtirok etganini ham ta’kidlash lozim. Qolaversa, Forishni, Uchqulochni davlatimiz rahbari yaxshi biladi. Jizzax viloyati hokimi sifatida barchaga ibrat ko‘rsatib ishlagan chog‘larida Uchqulochga kelgan, Aydar-Arnasoyni ko‘rgan, aholining muammolarini yurakdan his etgan, odamlarga amaliy jihatdan ko‘makdosh ham bo‘lgan.

AES qurilishi kabi megaloyiha hududning obod bo‘lishi uchun juda zarur. Aholi bandligi, yurt obodligi tuman yo viloyat iqtisodiyotini yuksaltiribgina qolmay, butun yurtimiz nufuzini ham oshiradi. Mahalliy Kengash deputati, shu elning farzandi sifatida bu xayrli loyihani qo‘llab-quvvatlayman. Stansiya butun boshli sanoat industriyasi paydo bo‘lishiga, bilimli, zukko mutaxassislaru ishchilar sinfining shakllanishiga turki berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Hakim TO‘YCHIYEV,
Forish tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i:

– Har qanday davlatda aholi bandligi muhim masalalardan hisoblanadi. Kambag‘allikning bartaraf etilishi ham, aholining turmush darajasi ham ayni muammoning yechimi bilan bog‘liq. Agar falon idorada ish bor, borgin deng, yoshlarning birinchi savoli shu: qancha to‘laydi, maoshi kechikmaydimi? Hunaring bormi, o‘zingning qo‘lingdan nima ish keladi, deyishga iymanasan. Chunki ko‘proq ish o‘rni yaratish, yangi korxonalar barpo etish biz kattalar zimmasida-da.

Achchiq bo‘lsa-da aytish kerak, tumanimizda sanoat korxonalari kam. Endi AES bizga katta yutuqlar keltiradi. Shunga elimiz ham umid bog‘layapti. Ishga yaroqli aholimiz 52 ming nafardan oshsa, shuning 2,5 mingidan ko‘prog‘i chetda, yana shuncha kishiga muqim ish o‘rni topishni mo‘ljallaganmiz.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Uchqulochda bunyodkorlikka start berilishi biz uchun quvonchli voqea bo‘ldi. Endi nafaqat Forishda, balki tumanimizga qo‘shni hududlarda ham ishsizlik butkul barham topadi, yoshlar avvalo, quruvchi, so‘ng murakkab texnologiyalarni boshqaruvchi mutaxassislarga aylanishadi. Bunga ishonchim komil.

Abral JUMASHEV,
forishlik chorvador (86 yosh):

– Tomorqangni chetida bir boshpana quraman desang, shunga ham qanchadan-qancha jonkuyarlik kerak. Bu yerda butun boshli shahar haqida gap boryapti. Shu loyihaga bosh qo‘shganlarning otasiga rahmat.

Forishdan chiqib Uchquloch tomon yursangiz yo‘lda Xonbandi shaharchasining to‘qqiz qavatli uylariga ko‘zingiz tushadi. Undan so‘ng Uchquloch – bugun dunyo nazariga tushgan manzil. Texnikalar tunu kun ishlayapti, mahalliy va Rossiyadan kelayotgan mutaxassislar soni kun sayin ko‘paymoqda. Turli darajadagi mas’ullaru mutasaddilar ham shu yerda.

Bu hududning aholisi ko‘p emas, bor-yo‘g‘i 2200 kishi atrofida. Kimdir baliqchilik bilan band, yana kimdir 30 – 40 kilometr uzoqlikka qatnab sement zavodida ishlaydi. Kichik bir mahalladagi 50 nafardan ziyod yoshlar chet elda.

“Uchquloch” MFY hududidagi 10 va 24-umumta’lim maktablarining bitiruvchilari shu paytgacha ota-onalari yonida qolishni ko‘pam istashmagan. Chunki bu yerda biror ishlab chiqarish korxonasining o‘zi yo‘q edi. Shu sabab oliy o‘quv yurtiga kirgan yo chet elga ishga ketgan borki, Uchqulochga qaytgisi kelmasdi. Endilikda AESning paydo bo‘lishi bunga barham beradi. Bu esa o‘z-o‘zidan tumanimizni yanada boy qiladi, iqtisodiyotini ko‘taradi. Ana shunisiga xursandman.

Abdunabi ALIQULOV
(“Xalq so‘zi”) yozib oldi.

KITOB javoningizga

«BIRLASHIB, BUYUK TARIX YARATAMIZ!»

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan bir guruh olimlar bilan hamkorlikda ulug‘ ayyom tuhfasi – muhim ma’naviy-ma’rifiy nashr tayyorlandi. “Birlashib, buyuk tarix yaratamiz!” nomli kitobda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi mazmunan keng va chuqur sharhlangan.



Kitobning bosh g‘oyasi bir jumlada mujassam: “Vatanimizning oltin davrini, yangi buyuk tarixini albatta barchamiz birgalikda yaratamiz!”

Bu shunchaki da’vat emas. Bu – birlikka chaqiriq, tarixiy mas’uliyat, kelajakka ishonch, har bir yurtdoshimizni Vatan taraqqiyotiga daxldor bo‘lishga undaydigan ezgu maqsad!

Kitobda Prezidentimiz nutqida ilgari surilgan tarixiy haqiqatlar, strategik maqsadlar, ustuvor vazifalar, muhim raqamlar va istiqbolli rejalar izchillik bilan tahlil qilingan.


Yana bir muhim jihat: nashr infografikalar bilan boyitilgan. Ular orqali tarixiy taraqqiyot bosqichlari, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari, ustuvor strategik yo‘nalishlar hamda milliy maqsadlar ko‘rgazmali va ixcham shaklda ifodalangan.

Mazkur qo‘llanma, ayniqsa, yosh avlodning mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarni anglashi, ularning mohiyati va ahamiyatini to‘g‘ri idrok etishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur kitob ta’lim muassasalarida Mustaqillik soatlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, ochiq muloqotlar va yoshlar bilan ishlash jarayonlarida foydalanish uchun samarali qo‘llanma bo‘la oladi.

“KO‘HNA ZAMINDAGI YANGI BEKOBOD”

Mazkur kitobda roppa-rosa bir asr bilan yuzlashgan Bekobod tumanining boy tarixi, taraqqiyot bosqichlari, turli davrlardagi rivojlanish odimlari, xalqning ma’naviy qadriyatlari, barcha sohalarda erishilgan yutuqlar va yuksak natijalari haqida so‘z boradi.



Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda olib borilayotgan strategik islohotlar va yangilanishlar natijasi o‘laroq ushbu tumanda ro‘y berayotgan olamshumul o‘zgarishlar unda o‘z aksini topgan.

Kitob bir necha bob va bo‘limlardan iborat bo‘lib, hududning olis hamda qadimiy o‘tmishi, Yangi O‘zbekiston davridagi tarixi alohida qismlarga bo‘lib tasvirlanadi.

So‘nggi yillarda elimizning erkin nafas olishi, g‘ururi va shoni-shavkati tiklanayotgani, dehqonning mashaqqatli mehnati yengillashayotgani, dasturxonlar to‘kin-sochin bo‘layotgani, qo‘shni davlatlar bilan chegaradosh tumanlarda yangi hamkorlik shabadasi esayotgani oqil va uzoqni ko‘zlagan siyosat natijasi. Jumladan, Bekoboddagi barcha o‘zgarishlar ushbu tumandagi muammolarni miridan-sirigacha chuqur bilgan, aholining dard-u tashvishlarini teran anglagan va uni yechish uchun zarur qarorlarni o‘z vaqtida chiqargan hamda kerakli moliyaviy resurslarni ajratib berayotgan Prezidentimizning doimiy e’tibori va g‘amxo‘rligi mahsulidir.

Bugungi kunda tuman taraqqiyoti muqaddam bo‘lgani kabi faqat qishloq xo‘jaligining paxtachilik, g‘allachilik tarmoqlariga tayanib qolmay, balki bog‘dorchilik, chorvachilik, sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalariga ham ko‘chib o‘tayotgani diqqatga sazovor.

Hududning ko‘rk-u tarovati ochilib borayotgani barobarida, bu jarayonlar xalqning ruhiy yangilanishlari bilan uyg‘un holda kechayotgani, ayniqsa, e’tiborli. Ma’naviy-ma’rifiy jihatdan uyg‘onish ham tuman aholisi qalbiga, ruhiga yangi kuch-g‘ayrat va shijoat bag‘ishlamoqda. Kitobxonlar ushbu to‘plamni mutolaa qilar ekan, “Inson qadri” tamoyili asosida har bir xonadon, har bir fuqaroning ko‘p yillik og‘riqli, go‘yo yechib bo‘lmas masalalari tizimli hal qilinayotgani, aholi muammolarini eshitish va joyida hal qilish mexanizmlari ishlayotganiga guvoh bo‘ladi.

Kitobda Bekobod tumanidagi o‘ndan ortiq qadimiy qishloqlar, muqaddas ziyoratgohlar tarixi va bugungi kuni o‘quvchiga aniq ma’lumotlar asosida yetkaziladi. Shuningdek, Bekobod zaminidan yetishib chiqqan 20 ga yaqin taniqli shoir va yozuvchilar, jumladan, Primqul Qodirov kabi betakror ijodkorlar haqida ham so‘z boradi, ularning o‘zi kamol topgan tumani haqidagi asarlari keltiriladi. Shu bilan birga, to‘plamdan ko‘p yillar davlatimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilgan, butun umrini el-yurt manfaatlari yo‘lida safarbar etgan taniqli insonlar, mehnat qahramonlari, olimlar, o‘z kasbining professional vakillari haqidagi e’tiborga molik maqolalar ham o‘rin olgan.

“Xalq so‘zi”.

Kelgusi yillarda yurtimizda inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan 7 ta milliy dastur amalga oshiriladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-942. 19 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 00.30 Topshirildi – 00.40 1 2 3 4 5 6